



UDK: 316.356.2:130.2

O'lmasbek SHAROPOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
Email: sharopovolmasbek874@gmail.com

O'zMU professori A. Utamurodov taqrizi asosida

ZAMONAVIY OILAVIY MUNOSABATLARDAN AN'ANAVIY QADRIYATLARNING BARQARORLIK OMILI SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy oilaviy munosabatlarning shakllanishida an'anaviy qadriyatlarining tutgan o'rni, ularning barqarorlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi. Global ijtimoiy o'zgarishlar fonida oila institutining transformatsiyalanishi, shuningdek, qadriyatlar tizimidagi uzluksizlik va moslashuvchanlik masalalari ilmiy asosda yoritiladi. Muallif tomonidan an'anaviy qadriyatlar zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda qanday omil sifatida namoyon bo'layotgani, ularning oilaviy barqarorlikka ta'siri ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Oila, qadriyat, barqarorlik, transformatsiya, zamonaviylik, an'anaviylik, ijtimoiy-falsafa.

ПРОЯВЛЕНИЕ ТРАДИЦИОННЫХ ЦЕННОСТЕЙ КАК ФАКТОР СТАБИЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В данной статье анализируется роль традиционных ценностей в обеспечении устойчивости семейных отношений в условиях современных социальных трансформаций. Освещаются философские аспекты взаимодействия традиционных и современных элементов в структуре семьи. Автор рассматривает, как традиционные ценности проявляются в современной социокультурной среде и влияют на стабильность института семьи.

Ключевые слова: Семья, ценности, устойчивость, трансформация, современность, традиционность, социальная философия.

THE MANIFESTATION OF TRADITIONAL VALUES AS A STABILITY FACTOR IN MODERN FAMILY RELATIONSHIPS

Annotation

This article analyzes the role of traditional values in ensuring the stability of family relations in the context of modern social transformations. The philosophical aspects of the interaction between traditional and modern elements in the family structure are examined. The author explores how traditional values manifest in the modern sociocultural environment and influence the sustainability of the family institution.

Key words: Family, values, stability, transformation, modernity, traditionalism, social philosophy.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida oila inson hayotining tayanch instituti sifatida namoyon bo'lib kelgan. U jamiyatning asosiy hujayrasi bo'lish bilan birga, ijtimoiy ongda qadimdan muqaddas qadriyatlar manbai sifatida qaralgan. Ayniqsa, an'anaviy oilaviy qadriyatlar milliy o'zlik, ijtimoiy intizom va barqarorlikning negizini tashkil etgan. Bugungi globallashtirish, urbanizatsiya va raqamli jamiyat sharoitida esa oilaviy munosabatlar tubdan o'zgarib, yangi mazmun kasb etmoqda[11].

Zamonaviylikning kuchayishi, individualizm, gender tengligi, erkin tanlov kabi tendensiyalar oilaviy hayotga yangi ijtimoiy-axloqiy me'zonlarni olib kirayotgani bois, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar o'rtasida muvozanatni saqlash masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Aynan shu nuqtada oila institutining ichki mustahkamligini ta'minlovchi omil sifatida qadriyatlar tizimining qayta ko'rib chiqilishi zarurati yuzaga chiqadi[6].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, "Yangi O'zbekiston" tamoyillari asosida jamiyatda ma'naviy tiklanish va qadriyatlarning yangicha talqini ilgari surilmoqda. Bu jarayonda oila institutining mustahkamligi, undagi munosabatlarning uyg'unligi, avlodlar orasidagi davomiylik an'anaviy qadriyatlarga tayanilgan holda

zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda an'anaviy qadriyatlarining barqarorlik omili sifatida qanday namoyon bo'lishi, ularning zamonaviy oila modelidagi o'rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shu bilan birga, oila transformatsiyasi jarayonidagi ijtimoiy va madaniy omillar, qadriyatlar uzviyligining buzilishi yoki saqlanishi bilan bog'liq muammolar va istiqbollar ham yoritiladi.

Zamonaviy oilaviy munosabatlarda qadriyatlar tizimining o'zgarishi, bir tomondan, ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy oqibati bo'lsa, boshqa tomondan, jamiyat barqarorligi uchun muayyan xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Masalan, iqtisodiy erkinlikning ortishi, migratsiya jarayonlari va mehnat bozoridagi raqobat oilaviy munosabatlarda individual manfaatlarni ustun qo'yishga olib kelmoqda. Shu sababli, jamiyatda ma'naviy muvozanatni saqlash uchun an'anaviy qadriyatlardan voz kechmasdan, ularni zamon talablari bilan uyg'unlashtirish zarurati tug'iladi. Bunday yondashuv qadriyatlarning muzlab qolishiga yo'l qo'ymasdan, ularni yangi sharoitlarda ham dolzarb bo'lishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, yosh oilalar hayotida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarining o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarning global madaniyat oqimlariga kirib borishi ularning milliy qadriyatlarga nisbatan munosabatini o'zgartirmoqda. Bu jarayonda davlat va jamiyatning vazifasi — milliy qadriyatlarni zamonaviy hayot uslubi bilan uyg'unlashtirgan holda, ularni ijtimoiy amaliyotda samarali qo'llashga sharoit yaratishdir. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda oilaviy qadriyatlarni targ'ib etish va ularni yoshlar ongiga singdirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Bundan tashqari, oilaviy qadriyatlarning barqarorlik omili sifatida saqlanishida diniy-ma'naviy meros ham alohida o'rin tutadi. Milliy mentalitetda e'tiqod, sabr, mehr-oqibat va bag'rikenglik qadimdan oilaviy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Bugungi globallashtirish davrida ushbu qadriyatlarni faqat diniy yoki an'anaviy mezon sifatida emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi universal tamoyillar sifatida qayta talqin etish lozim. Bu jarayon falsafiy nuqtai nazardan qadriyatlarning yangilanishi emas, balki ularning mazmunan boyib, jamiyat taraqqiyotiga moslashishini anglatadi.

Shuningdek, empirik kuzatuvlar ko'rsatadiki, ajralishlar sonining ortishi ko'pincha oilada ma'naviy qadriyatlarning sustlashishi bilan bog'liqdir. Agar oila a'zolari o'zaro hurmat va mas'uliyat hissini yo'qotsa, u holda iqtisodiy farovonlik yoki tashqi sharoitlar oilaning barqarorligini saqlab qolishga ojiz bo'lib qoladi. Shu sababli, oilaviy siyosatda faqat moddiy qo'llab-quvvatlash emas, balki ma'naviy qadriyatlarni tiklash va mustahkamlashga yo'naltirilgan dasturlar ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mahalla instituti, qadimiy urf-odatlar va jamoaviy hayot shakllari oilaviy qadriyatlarning barqarorligini ta'minlashda samarali omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jihat nafaqat milliy xususiyat, balki ijtimoiy-falsafiy jihatdan ham oilaning jamiyatdagi o'rni va rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu qadriyatlarni raqamli jamiyat sharoitiga moslashtirish, masalan, onlayn ta'lim, oilaviy psixologiya markazlari va virtual maslahat xizmatlari orqali kengaytirish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oilaviy qadriyatlar nafaqat shaxslararo munosabatlar darajasida, balki jamiyatdagi umumiy ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham bevosita ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy davrda global omillar, xususan, raqamli kommunikatsiyalar, ommaviy madaniyat va turli mafkuraviy ta'sirlar oilaviy qadriyatlar tizimiga yangi sinovlarni olib kirmoqda. Yoshlarning virtual dunyoga tobora chuqur kirib borishi, onlayn muloqotning kundalik hayotda asosiy shaklga aylanishi an'anaviy qadriyatlarning uzviyligini zaiflashtirishi mumkin. Shu sababli, bugungi kunda qadriyatlarni faqat an'anaviy shaklda targ'ib qilish emas, balki ularni zamonaviy kommunikatsion platformalarda — ijtimoiy tarmoqlar, multimedia loyihalari va ta'lim dasturlari orqali targ'ib qilish muhimdir. Bu esa qadriyatlarning zamonaviy muhitda ham samarali saqlanishi va yoshlar ongida mustahkam o'rnatilishiga xizmat qiladi.

Falsafiy jihatdan qaralganda, qadriyatlar transformatsiyasi — bu jamiyat rivojlanishining uzviy qonuniyati hisoblanadi. Ammo bu transformatsiya boshqarilmagan holda kechsa, jamiyatda qarama-qarshiliklar kuchayadi, oila instituti esa o'zining asosiy ijtimoiy-falsafiy vazifasini yo'qota boshlaydi. Shu sababli, qadriyatlarning yangilanishini nazorat qiluvchi mexanizmlar zarur. Ular, birinchidan, milliy an'analar va ma'naviy merosni asrashga, ikkinchidan esa, zamonaviy jamiyatning talablariga moslashishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kelgusida oilaviy qadriyatlarning barqarorlik omili sifatida saqlanishi uchun ilmiy-falsafiy tadqiqotlar yanada chuqurlashtirish lozim. Ayniqsa, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlikning o'zaro bog'liqligini empirik tadqiqotlar asosida

isbotlab berish, statistik ma'lumotlar bilan boyitish va ularni konseptual darajada umumlashtirish ilmiy zaruratdir. Shu bilan birga, qadriyatlarning yangi avlodlar tomonidan qabul qilinishi jarayonida psixologik va pedagogik omillar ham chuqur o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Natijada, zamonaviy oilaviy munosabatlarda qadriyatlarning transformatsiyasi falsafiy jihatdan qaralganda, ijtimoiy barqarorlikning bosh mezoniga aylanadi. Oila institutining kuchliligi va barqarorligi esa faqat moddiy sharoitlar emas, balki aynan qadriyatlarning saqlanishi, ular ustida qurilgan ijtimoiy ong va ma'naviy hayot bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oila va qadriyatlar masalasi ijtimoiy fanlar, ayniqsa, sotsiologiya, psixologiya, falsafa va madaniyatshunoslik sohalarida ko'p yillardan buyon tadqiqot markazida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy jamiyatdagi o'rni, ularning oilaviy munosabatlarga ta'siri haqida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar bu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi.

O'zbek olimlari orasida X. Yo'ldoshev, B. Qodirov, M. Jo'rayev, Z. Turaqulova kabi mutaxassislar tomonidan oila va qadriyatlar masalasining tarixiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini yoritilgan. Jumladan, X. Yo'ldoshev oila institutining jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlovchi negiziy omil sifatidagi ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. B. Qodirov esa oilaviy qadriyatlar tizimining yangilanishi va yangicha talqin etilishi masalasiga e'tibor qaratgan[2].

Artemeva, T. A. Gurko, L. N. Mosina kabi rus olimlarining tadqiqotlarida esa zamonaviy oila tipologiyasi, oiladagi gender rollarining o'zgarishi, individualizm va modernizatsiya jarayonlari kontekstida oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi yoki yangi shakllarda paydo bo'lishi o'rganilgan. Bu ishlarda ayniqsa, oilaning funksional barqarorligi bilan bog'liq mezonlar chuqur yoritilgan.[5]

Shuningdek, G'arb olimlaridan A. Giddens, U. Bek, Z. Baumanlarning oilaning zamonaviy shakllanishi, "suyuq modern" (liquid modernity) sharoitida qadriyatlar beqarorligi va oilaviy munosabatlarning o'zgaruvchanligiga doir qarashlari mazkur mavzuning global kontekstdagi muhim jihatlaridan dalolat beradi. U. Bek "individuallashtirilgan jamiyat"da an'anaviy qadriyatlar emas, balki shaxsiy ehtiyoj va tanlov asosidagi munosabatlar ustuvor bo'lib borayotganini ta'kidlaydi[10].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston — yangi qadriyatlar" g'oyasi asosida olib borilayotgan falsafiy-ijtimoiy tadqiqotlarda oila mustahkamligi va qadriyatlar uyg'unligi alohida e'tiborga olinmoqda. Xususan, bu yondashuvda oila nafaqat ijtimoiy muhitdagi barqarorlik omili, balki shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy institut sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagi manbalar asosida aytish mumkinki, oila va qadriyatlar masalasi nafaqat tarixiy-falsafiy, balki ijtimoiy amaliyot nuqtai nazaridan ham dolzarb bo'lib, uni chuqur tahlil qilish zamonaviy oila institutining rivojlanish tamoyillarini belgilashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada zamonaviy oilaviy munosabatlarda an'anaviy qadriyatlarning barqarorlik omili sifatida namoyon bo'lishini o'rganishda ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosiy metodologik poydevor sifatida tanlandi. Bu yondashuv orqali oila institutining nafaqat tashqi ko'rinishi, balki uning ichki mohiyati, qadriyatlar tizimidagi uzviylik va o'zgaruvchanlik holatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida tarixiy-tahliliy, taqqoslama va sistemali yondashuv metodlari qo'llanildi. Tarixiy-tahliliy metod orqali oila institutining qadimdan to hozirgacha bo'lgan evolyutsiyasi, an'anaviy qadriyatlarning shakllanishi va

ularning zamonaviy davrdagi aks-sadosi o'rganildi. Taqqoslama metod esa an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ziddiyat yoki uyg'unlik holatlarini aniqlash imkonini berdi[7].

Shuningdek, maqolada sistemali yondashuv asosida oila institutining ijtimoiy tizimdagi o'rni, uning boshqa institutlar (ta'lim, din, davlat, bozor) bilan o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Bu orqali qadriyatlar transformatsiyasining jamiyat barqarorligiga bevosita ta'siri falsafiy jihatdan tahlil etildi[7].

Tadqiqotda shuningdek, mantiqiy tahlil, deduktiv va induktiv yondashuvlar, hamda falsafiy kategoriyalar (masalan, erkinlik, zaruriyat, qadriyat, ijtimoiy tartib) asosida fikr yuritish vositalari qo'llanildi. Ushbu metodologik asoslarga tayangan holda, zamonaviy oilaviy munosabatlarning murakkabligi, qadriyatlarning o'zgarish sur'ati va bu holatlarning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri aniqlandi.

Shu tariqa, maqolada metodologik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi oila institutining falsafiy mohiyatini har tomonlama yoritish va an'anaviy qadriyatlarining zamonaviy jamiyatdagi tutgan o'rnini chuqur tahlil qilishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida oilaviy qadriyatlar tizimi murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy ta'sirlar ostida shakllanmoqda. An'anaviy oila qadriyatlari, xususan, hurmat, mehr-oqibat, vafodorlik, kattalarga ehtirom, burch va mas'uliyat hissi zamonaviy hayot sharoitida yangi shakllarda qayta talqin qilinmoqda. Ushbu qadriyatlar oilaviy barqarorlikni ta'minlashda hanuz muhim omil bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, ularning mohiyati va ifoda shakllari sezilarli o'zgarishga uchramoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlarga individual yondashuv, shaxsiy manfaatlar va erkinliklar ustuvorligi kuchaymoqda. Bu esa ko'plab an'anaviy qadriyatlarning chekinishiga yoki o'z funksiyalarini yo'qotishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, gender tengligi, iqtisodiy mustaqillik, shaxsiy erkinlik kabi g'oyalar oilaviy munosabatlarda avvalgi avlodlar uchun muqaddas bo'lgan qadriyatlar tizimiga yangicha qarashlarni olib keldi[6].

Biroq, zamonaviy oilaning barqarorligi aynan an'anaviy qadriyatlarining ichki mohiyati, ya'ni o'zaro hurmat, sabr, mas'uliyat, vafodorlik kabi fazilatlarining saqlanishi bilan chambarchas bog'liq. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, qadriyatlar uzviyligining buzilishi ajralishlar sonining ortishi, bolalarning ijtimoiylashuvdagi muammolar, ruhiy beqarorlik holatlari bilan namoyon bo'lmoqda. Bu esa oila institutining ijtimoiy barqarorlikdagi roli sustlashayotganini anglatadi.

O'zbekiston jamiyati kontekstida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalliy mentalitet, urf-odat va diniy

dunyoqarashlar hali ham an'anaviy qadriyatlar tizimining asosiy tayanchidir. Ayni paytda, urbanizatsiya va mehnat migratsiyasi kabi omillar ushbu qadriyatlarning kundalik hayotdagi amaliy qo'llanilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holatda oila institutining muvozanatga erishishi uchun qadriyatlar bilan zamonaviylik o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash muhim vazifadir[11].

Maqola doirasida shuningdek, zamonaviy oilalarning tipologik tahlili ham amalga oshirildi. Oddiy (yadro), kengaygan, aralash va individual oilalar orasida barqarorlik darajasi ko'p hollarda qadriyatlar tizimining mustahkamligi bilan aniqlanmoqda. Ayniqsa, ota-onalar va farzandlar o'rtasida avlodlararo aloqalarning uzviyligi, milliy tarbiya an'analari, o'zaro hurmat va oila ichki intizomi barqaror oila modelining asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda[12].

Shunday qilib, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy qadriyatlar oilaviy munosabatlarda barqarorlikning asosi bo'lib qolmoqda. Ularning zamonaviy talablarni bilan uyg'unlashuvi esa oila institutining ijtimoiy-falsafiy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-falsafiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Oila barqarorligini ta'minlashda an'anaviy qadriyatlarining roli hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu qadriyatlar shaxslararo munosabatlarda hurmat, sabr, vafodorlik, burch va mas'uliyat kabi ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi asosiy mezonlar sifatida saqlanib qolmoqda.

Zamonaviy oilaviy munosabatlar o'z mohiyatida shaxsiy erkinlik, gender tengligi, iqtisodiy mustaqillik kabi tamoyillarni o'z ichiga olsa-da, ular an'anaviy qadriyatlar bilan muvofiq holda uyg'unlashmaguncha jamiyatdagi barqarorlikka to'liq erisha olmaydi[6].

Qadriyatlar transformatsiyasini boshqarish zarur. Bu jarayonda oila institutini qo'llab-quvvatlaydigan davlat siyosatini kuchaytirish, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni kuchaytirish, yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda singdirish orqali an'anaviylik va zamonaviylik muvozanatini saqlash mumkin.

Oila instituti ijtimoiy-falsafiy yondashuvda chuqurroq o'rganilishi lozim. Bu boradagi tadqiqotlar nafaqat ijtimoiy holatni aks ettiradi, balki ularni tartibga soluvchi mexanizmlar ishlab chiqilishi uchun konseptual asos yaratadi.

Shunday qilib, zamonaviy oilaviy munosabatlarda an'anaviy qadriyatlarining barqarorlik omili sifatida saqlanishi — ijtimoiy tizimning sog'lom rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy tayanchlardan biridir. Bu qadriyatlar faqat tarixiy meros emas, balki zamonaviy jamiyatda istiqbol sari yo'naltiruvchi falsafiy tamoyillardir.

ADABIYOTLAR

1. Yoldoshev X. Falsafa. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 416 b.
2. Qodirov B. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 280 b.
3. Jo'rayev M. Oila sotsiologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2011. – 212 b.
4. Turaqulova Z. Oila qadriyatlari va jamiyat barqarorligi. // O'zMU xabarları. – 2022. – №1. – B. 78–84.
5. Gurko T.A. Teoreticheskie podxody k izucheniyu semi. – M.: Institut sociologii RAN, 2010. – 158 s.
6. Mosina L.N. Sem'ya v usloviyax transformatsii: sociologicheskij analiz. – M.: Logos, 2012. – 192 s.
7. Artemyeva A.I. Traditsionnye tsennosti i semeynaya kultura. // Filosofskie nauki. – 2015. – №3. – S. 41–48.
8. Giddens A. The Transformation of Intimacy: Sexuality, Love and Eroticism in Modern Societies. – Cambridge: Polity Press, 1992. – 216 p.
9. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage Publications, 1992. – 260 p.
10. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 180 b.
12. Abdurahmonov Q., Karimov R. Oila va jamiyat barqarorligi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2020. – 164 b.
13. Tilly Ch. Durable Inequality. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 320 p.
14. Aslonov S. Oila qadriyatlari: milliy va zamonaviy mezonlar. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 148 b.